
RASMIY MUNOSABAT

Ijtimoiy tarmoqlarda Farg'ona shahar Qirguli mavzeidagi Yangi asr ko'chasida joriy yil bahor fasli boshida ekilgan archa ko'chatlarining quriganligi bo'yicha murojaat tarqaldi.

Mazkur murojaat Farg'ona shahar hokimligi mutaxassislari va mas'ullar ishtirokida o'rganildi. Hududdagi boshqaruv servis kompaniyalari, mahalla fuqarolar yig'inlari xodimlariga tushuntirish ishlari olib borilib, ko'chatlarni havo harorati ko'tarilgan kunlarda saqlash bo'yicha tushunchalar berildi.

Shuningdek, mazkur hududda sug'orish tizimini yangilash, qurish bo'yicha choralar ko'rildi. Ko'chatlar tagi ochilib, suv quyiladi. Mutaxassislar tomonidan qurigan deb xulosa berilganlari olib tashlandi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-05-30 14:11:35